



## INTERPRETATION OF SURAH ABASA IN TAFSIRS

**Makhkamov Xondamir Mahmudjon o'g'li**

Master's student of the International  
Academy of Islamic Studies of Uzbekistan  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288595>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> May 2026  
Accepted: 18<sup>th</sup> May 2026  
Online: 19<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

Surah Abasa, science of  
interpretation, Abu  
Mansur Maturidi, Sahl  
Tustari, Ishari  
interpretation, Quran  
interpretation.

### ABSTRACT

*This article analyzes the Surah "Abasa" of the Holy Quran scientifically and theoretically within the framework of the science of interpretation, and studies the reasons for the revelation of the Surah, its historical context, and its interpretations in classical sources of interpretation on a comparative basis. The main purpose of the study is to illuminate the content and essence of Surah "Abasa" based on the views of such commentators as Abu Ja'far Tabari, Abu Mansur Maturidi, and Sahl ibn Abdullah Tustari, and to scientifically analyze the moral, social, and mystical ideas embodied in the Surah.*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СУРЫ АБАСА В ТАФСИРЫ

**Махкамов Хондамир Махмуджон ўғли**

Магистрант Международная академия исламоведения Узбекистана  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288595>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> May 2026  
Accepted: 18<sup>th</sup> May 2026  
Online: 19<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

Сура «Абаса», наука  
толкования, Абу Мансур  
Матуриди, Сахл  
Тустари, толкование  
Ишари, толкование  
Корана.

### ABSTRACT

*В данной статье проводится научный и теоретический анализ суры «Абаса» Священного Корана в рамках науки толкования, а также изучаются причины ниспослания суры, её исторический контекст и толкования в классических источниках толкования на сравнительной основе. Главная цель исследования – осветить содержание и сущность суры «Абаса» на основе взглядов таких комментаторов, как Абу Джафар Табари, Абу Мансур Матуриди и Сахль ибн Абдулла Тустари, и научно проанализировать моральные, социальные и мистические идеи, воплощенные в суре.*

## TAFSIRLARDA ABASA SURASINING TALQINI

**Maxkamov Xondamir Mahmudjoon o'g'li**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik  
Akademiyasi magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288595>

### ARTICLE INFO

### ABSTRACT



Received: 13<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 18<sup>th</sup> May 2026

Online: 19<sup>th</sup> May 2026

**KEYWORDS**

*Abasa surasi, tafsir ilmi, Abu Mansur Moturidiy, Sahl Tustariy, ishoriy tafsir, Qur'on tafsiri.*

*Mazkur maqolada Qur'oni karimning "Abasa" surasi tafsir ilmi doirasida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, suraning nozil bo'lish sabablari, tarixiy konteksti hamda klassik tafsir manbalaridagi talqinlari qiyosiy asosda o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi "Abasa" surasining mazmun-mohiyatini Abu Ja'far Tabariy, Abu Mansur Moturidiy va Sahl ibn Abdulloh Tustariy kabi mufasssirlarning qarashlari asosida yoritish hamda surada mujassam bo'lgan axloqiy, ijtimoiy va irfoniy g'oyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.*

Manbalarda Abasa surasining Makkiy sura ekani, oyatlarining soni 42 ta ekani borasida ixtilof yo'q. Shuningdek, Sulaymon ibn Umar Jamol (XVIII asr)ning "Futuhot ilohiyya" asarida ushbu suraning "Safaro" (Elchi farishtalar), "A'mo" (ko'zi ojiz) kabi nomlar bilan, Muhammad Abdulhaq ibn Shohning (XIX asr) "Al-Iklil a'la Madorik at-tanzil" asarida esa ushbu nomlarga qo'shimcha o'laroq "Soxxo" nomi bilan nomlanib, 42 ta oyat, 130 ta so'z hamda 330 ta harf mavjudligi aytiladi.

Tafsirlarda suraning nozil bo'lishiga oid qator rivoyatlar mavjud. Abu Jafar ibn Jarir Tabariy o'zining "Jome' al-bayon a'n ta'vili ayat al-Qur'on" asarida Ibn Abbos (r.a.)dan yetib kelgan sahih rivoyatlar zanjiri asosida suraning tarixiy kontekstini bayon etgan. Rivoyatga ko'ra, Payg'ambar Quraysh qabilasining nufuzli vakillari (Utba va Shayba ibn Rabi'a, Abu Jahl, Umayya ibn Xalaf, Abbos ibn Abdulmuttalib) bilan diplomatik va da'vat xarakteridagi suhbat olib borayotgandi. Jarayonga sahobiy Abdulloh ibn Ummu Maktumning qo'shilishi va vahiydan

ta'lim berishni so'rashi, suhbatning strategik yo'nalishini bo'lib qo'ydi. Natijada Rasululloh (SAV)ning yuzlarida biroz norozilik alomatlari sezilib, e'tiborni nufuzli kishilarga qaratganlari vahiydagi "itob"ga sabab bo'ldi<sup>1</sup>.

Abu Mansur Moturidiyning teologik tahliliga ko'ra "Ta'vilot al-Qur'on" asarida ushbu voqea yuzasidan chuqur ilmiy mushohadalar taqdim etilgan.

*Payg'ambarlik ijtihodi va niyat.* Rasululloh (s.a.v)ning yuz burishtirishlari shaxsiy takabburlik emas, balki din manfaatini ustun qo'yishga yo'naltirilgan ijtihod natijasidir. Bunda qabila yetakchilarining islomni qabul qilishi ommaviy imon keltirishga sabab bo'lishi kutilgan edi.

*Axloqiy va psixologik aspekt.* Moturidiy qayd etishicha, Ibn Ummu Maktumning ko'zi ojizligi tufayli bu holat unga nisbatan shaxsiy haqorat yoki dag'allik sifatida namoyon bo'lmagan. Biroq ilohiy me'zon bo'yicha, payg'ambarlik missiyasining mohiyati dunyoviy nufuzdan yuqori turishi ta'kidlangan.

<sup>1</sup> Natijada Abasa surasining ushbu oyatlari nozil bo'ldi: 1. "Yuzini burishtirdi va teskari o'girildi". 2. "Huzuriga ko'zi ojiz kishi kelganida". 3. "(Ey

Muhammad,) qayerdan ham bilasiz, ehtimol u poklanar?". 4. "Yoki pand-nasihati olar va bu nasihat unga foyda berar?"



*Ilohiy itobning mohiyati.* Ushbu vaziyat shaxsiy fikr (ijtihad) emas, balki mutloq ilohiy o'lchovning ustuvorligini ko'rsatdi. Islomning fundamental tamoyiliga ko'ra, ixlosli bir o'jiz mo'minning qadri, o'zini takabburona tutuvchi nufuzli kishilardan afzal deb baholandi.

Abasa surasidagi mazkur voqelik zamonaviy jamiyatshunoslik va etika fani uchun ijtimoiy va axloqiy xulosalarni taqdim etadi:

Insonning qadri moddiy boylik yoki ijtimoiy status bilan emas, balki uning ichki ruhiy holati va ezgulikka intilishi, ruhiy poklanish va taqvo bilan belgilanadi, bunga Qur'oni karimning Hujurot surasidagi 13-oyati ham dalil bo'ladi;

Jamiyatning zaif qatlamlari va imkoniyati cheklangan shaxslar davlat va jamiyat e'tiborida bo'lishi zaruriyati ko'rsatib berildi;

Maqsad qanchalik ulug' bo'lmasin (hatto u din da'vati bo'lsa ham), unga yetishish vositalari va metodlari qat'iy axloqiy me'zonlarga muvofiq bo'lishi shart ekanligi;

Haqiqiy liderlik tanqidiy fikrni qabul qilish va shaxsiy manfaatdan ko'ra umuminsoniy qadriyatlarni ustun qo'yishda namoyon bo'lishi kabilarni xulosa qilish mumkin.

Abasa surasining nozil bo'lishi va uning tafsirlardagi talqini islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib beradi. Rasululloh (s.a.v)ning keyinchalik Ibn Ummu Maktumni "Rabbim menga itob

qilishiga sabab bo'lgan zot" deya e'zozlashlari, islom etikasining amaliy isboti bo'ladi.

Sahl ibn Abdulloh Tustariyning "Tafsir Qur'on azim" asari ishoriy tafsir yo'nalishidagi ilk va eng nufuzli manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Abasa surasining 21, 22, 25, 34 va 37-oyatlarini sharhlashda an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda, inson ruhiyatining transformatsiyasiga<sup>2</sup> urg'u beradi.

Suraning 21-oyatidagi **"So'ngra uni o'ldirdi va qabrga kirgazdi"** jumlasini Tustariy talqinida insonning jismoniy vafoti emas, balki nafs o'limi sifatida tavsiflanadi. Bunda "Alloh taolo banda tabiatidagi shahvat va havoyi nafs ulushlarini yo'q qilishi", "nafsnig o'z vujudi ichiga "dafn qilinishi" orqali uning butunlay irodaga bo'ysundirilishi" nazarda tutilgan.

Navbatdagi **"So'ngra qachon xohlasa, uni qayta tiriltirur"** mazmunidagi 22-oyat esa ma'naviy tirilish bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon insonning nafsoniy istaklardan butunlay forig' bo'lib, ilohiy hikmat va ma'rifat bilan qayta shakllanishini anglatadi. Bunday holatda inson dunyoviy matolardan uzilib, faqat Haq taoloning jamoli va mushohadasiga yo'naladi.

**"Albatta, Biz suvni mo'l-ko'l quydik"** mazmunida keluvchi 25-oyatda tabiat hodisalari Tustariy tomonidan qalb arxitektonikasi<sup>3</sup> doirasida tushuntiriladi. Bu yerda metaforik<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Transformatsiya – bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish. Ushbu o'rinda insonning tuban nafsiy holat – shahvatlarga qul bo'lishdan pok qalb va yuksak ruhiy holatga – valiyulloh darajasiga o'tish jarayoni nazarda tutilgan.

<sup>3</sup> Arxitektonika – qismlarning o'zaro mutanosibliigi. "Qalb arxitektonikasi" iborasi qalbning murakkab ma'naviy tuzilishini, undagi imon, aql va ruhning o'zaro joylashuvi hamda bog'liqligini ifodalaydi.

<sup>4</sup> Metaforik – so'zning o'z ma'nosida emas, balki o'xshatish asosida ko'chma ma'noda qo'llanishi.



o'xshatishlar qo'llanilgan bo'lib, masalan "suv – ilohiy ilhom va ma'rifat manbai", "yer – inson qalbining ramziy ifodasi" sifatida tafsir qilingan.

Ilohiy ilm qalbga kirib borganda, "tosh qalb"ning yumshashi (yorilishi) natijasida unda imon va ma'rifat gullari unib chiqadi. Ushbu nazariyani qo'llab-quvvatlash maqsadida Tustariy Qur'onni qalb guli, iymonni esa yomg'ir bilan unuvchi ne'matga qiyoslangan hadisni<sup>5</sup> dalil sifatida keltiradi. Shu bilan birga, baxillik nifoqni keltirib chiqaruvchi salbiy omil shabnam va o't-o'lan misolida ekanligi uqtiriladi.

Sahl ibn Abdulloh Tustariy tomonidan ayrim oyatlarning esxatologik tahliliga ham ishoriy uslubda yondashuvlar mavjud bo'lib, xususan, 34 va 37-oyatlarda bayon etilgan qiyomat manzaralari insonning ijtimoiy bog'lanishlardan uzilish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

**"U kunda kishi o'z birodaridan qochur"** – deyilganda, Hobilning

Qobildan, Payg'ambar (s.a.v) amakisidan, Ibrohim (a.s) va Nuh (a.s) kabi payg'ambarlarning o'z yaqinlaridan qochishi – e'tiqodiy ayiruvning yakuniy natijasidir. Ya'ni, oxiratda faqat ma'naviy va e'tiqodiy yaqinlik o'z kuchida qolishi, tavhiddan boshqa yo'lni tanlaganlar esa bir-biridan butunlay begonalashishi nazarda tutilgan.

**"U kunda ulardan har bir kishi uchun o'ziga yetarli tashvishi bo'lur"**. 37-oyatdagi "tashvish" kishini shunday darajada egallaydiki, natijada inson "illa a'n nafsih" – o'z nafsi/joni qayg'usidan boshqa barcha narsadan to'silish holatiga tushadi.

Xulosa o'laroq aytish mumkinki Sahl Tustariyning ishoriy tafsiri "Abasa" surasi misolida insonning ruhiy kamolot bosqichlarini nafsni jilovlashdan boshlab, ma'naviy tirilish va ilohiy ma'rifat orqali oxiratdagi shaxsiy mas'uliyatni anglashgacha bo'lgan yo'lni ilmiy-irfoniy tizimga solib beradi.

### References:

1. Ta'vilot al-Qur'on. Abu Mansur Moturidiy. 30-juz. Tarjimonlar: Alouddin Hofiy va boshqalar. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2021. – 704 b.
2. Sahl ibn Abdulloh Tustariy. Tafsiru Qur'oni azim. – Qohira: Dor al-harom li-t-turos, 2004. – 347 b.
3. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome' al-bayon a'n tavii ayat al-Qur'on. – J:7. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1994. – 549 b.
4. Sulaymon ibn Umar Jamol. Futuhoti ilohiyya. – J:8. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2018. – 479 b.
5. Muhammad Abdulhaq ibn Shoh. Al-Iklil a'la Madorik at-tanzil va haqoiq at-ta'vil. – J:7. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2012. – 671 b.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:6. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2023. – 616 b.

<sup>5</sup> Hadisda aytiladiki "Ogoh bo'ling, albatta Qur'on qalblarning gulidir. Ogoh bo'ling, albatta, iymon, boy qallda yomg'ir gullarni undirganidek unadi.

Ogoh bo'ling, albatta baxillik qallda nifoqni xuddi shabnam o't-o'lanlarni undirganidek undiradi".